



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Sulhiddinova Sabrina Sirojiddinovna

Osiyo xalqaro universiteti magistri

e-mail: s.s.sulhiddinova@asiainterun.uz


<https://doi.org/10.5281/zenodo.18737883>

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik rivoji bilan bevosita bog'liq holda o'zgarib bormoqda. Bu jarayonda o'qituvchining roli ham tubdan yangilanmoqda. Endilikda o'qituvchi faqat tayyor bilimlarni yetkazuvchi emas, balki ta'lim jarayonini tahlil qiluvchi, muammolarni aniqlovchi, vaziyatga mos pedagogik qarorlar qabul qiluvchi va o'z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi mutaxassis sifatida qaralmoqda. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning fikrlash madaniyati, ayniqsa refleksiv fikrlashini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Refleksiv fikrlash o'qituvchining o'z pedagogik tajribasini ongli ravishda tahlil qilishi, amalga oshirilgan faoliyat natijalarini baholashi va kelgusidagi faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan xulosalar chiqarish jarayonidir. Bu jarayon o'qituvchiga o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, metodik xatolarini anglash va ularni takrorlamaslik imkonini beradi. J. Dewey refleksiv fikrlashni tajribaga ongli qayta murojaat qilish va undan ma'no chiqarish jarayoni sifatida ta'riflagan bo'lib, bu yondashuv bugungi kunda ham pedagogik ta'limning nazariy asoslaridan biri bo'lib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlarda refleksiv fikrlash o'qituvchi kasbiy ongini shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida e'tirof etiladi. D. Schön o'z tadqiqotlarida refleksiyani o'qituvchining kasbiy faoliyat jarayonida va undan so'ng amalga oshiriladigan tahliliy fikrlash shakli sifatida izohlaydi. Uning fikricha, refleksiv fikrlash pedagogik faoliyatni mexanik bajarishdan ongli va ijodiy faoliyat darajasiga olib chiqadi.

Bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonida refleksiv fikrlashni rivojlantirish ayniqsa muhimdir. Chunki aynan ushbu bosqichda talaba-o'qituvchilar nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan solishtiradi, real sinf muhiti bilan tanishadi va o'z kasbiy pozitsiyasini shakllantira boshlaydi. Refleksiv fikrlash rivojlangan bo'lajak o'qituvchi dars jarayonida yuzaga keladigan muammolarni faqat tashqi omillar bilan emas, balki o'z faoliyati bilan bog'liq holda ham tahlil qiladi. Bu esa kasbiy mas'uliyat va mustaqillikning shakllanishiga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, pedagogik ta'lim amaliyotida refleksiv fikrlash ko'pincha yetarli darajada tizimli shakllantirilmaydi. Ko'plab holatlarda refleksiya faqat darsdan keyingi qisqa hisobot yoki umumiy xulosalar bilan cheklanib qoladi. Bunday yondashuv refleksiv fikrlashning chuqur rivojlanishiga imkon bermaydi.





Loughran ta'kidlaganidek, refleksiya samarali bo'lishi uchun u rejalashtirilgan, yo'naltirilgan va metodik jihatdan asoslangan bo'lishi lozim

Refleksiv fikrlash yetarli darajada rivojlanmagan bo'lajak o'qituvchilar pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni chuqur anglashda qiyinchilikka duch keladi. Natijada ular tayyor metodik sxemalarga tayanib qoladi, vaziyatga moslashuvchan yondasha olmaydi va kasbiy rivojlanish jarayoni sekinlashadi. Shu sababli refleksiv fikrlashni rivojlantirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda refleksiv fikrlashni rivojlantirish maxsus metodik yondashuvlarni talab qilishi ta'kidlanadi. Yozma refleksiya, reflektiv kundaliklar, muhokama asosidagi tahlil, mentor bilan reflektiv suhbatlar va videoasoslangan tahlil kabi metodlar bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv fikrlashini chuqurlashtirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda

Shu nuqtayi nazardan, refleksiv fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularni pedagogik ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu ishda aynan bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv fikrlashni rivojlantirishga oid mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish, metodik yondashuvlarni tahlil qilish va ularning pedagogik ta'lim uchun ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

2. Metodologiya

Mazkur tahliliy maqola bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslarini aniqlash va umumlashtirishga qaratilgan bo'lib, tizimli adabiyotlar tahlili (systematic literature review) metodiga asoslanadi. Ushbu metod tanlanishining asosiy sababi refleksiv fikrlash muammosi bo'yicha turli yillarda va turli ilmiy maktablar doirasida olib borilgan tadqiqotlarni bir butun tizim sifatida ko'rib chiqish, ularning nazariy va metodik jihatlarini solishtirish hamda umumiy xulosalar chiqarish imkoniyatining mavjudligidir. Tadqiqot sifatli (qualitative) yondashuv asosida olib borildi, ya'ni empirik eksperimentlar yoki statistik modellashtirish emas, balki ilmiy matnlarning mazmuniy va mantiqiy tahliliga ustuvor ahamiyat berildi.

Tadqiqotning asosiy vazifasi refleksiv fikrlash tushunchasining pedagogik talqinlarini aniqlash, bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonida refleksiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tizimlashtirish hamda ularning samaradorligini ilmiy manbalar asosida baholashdan iborat bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, refleksiv fikrlash individual psixologik jarayon sifatida emas, balki o'qituvchining kasbiy faoliyatini ongli ravishda tahlil qilish va





takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqot dizayni refleksiyaning nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida talqin qiluvchi ilmiy yondashuvlarga tayandi.

Adabiyotlarni tanlash jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlab Google Scholar (<https://scholar.google.com>), ERIC (<https://eric.ed.gov>), Web of Science (<https://www.webofscience.com>) va Scopus (<https://www.scopus.com>) kabi xalqaro ishonchli ilmiy bazalarda qidiruv ishlari olib borildi. Qidiruv jarayonida "reflective thinking", "reflection in teacher education", "reflective practice", "pre-service teachers" kabi asosiy kalit so'zlardan foydalanildi. Tanlash mezonlari sifatida 1990–2023 yillarda chop etilgan, retsenziyalangan ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar hamda pedagogik ta'limga oid nufuzli monografiyalar belgilandi. Ayniqsa, refleksiv fikrlashning nazariy asoslari va uni rivojlantirish metodikasini bevosita yoritgan ishlar ustuvor hisoblandi.

Tanlov jarayonida ilmiy asosga ega bo'lmagan, faqat umumiy pedagogik tavsiyalar bilan cheklangan yoki refleksiv fikrlash tushunchasini yuzaki talqin qilgan manbalar tahlildan chiqarib tashlandi. Shuningdek, bloglar, ommabop maqolalar va ilmiy ekspertizadan o'tmagan internet manbalari tadqiqot doirasiga kiritilmadi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tanlangan adabiyotlar tematik tahlil (thematic analysis) usuli yordamida o'rganildi. Ushbu usul refleksiv fikrlashga oid asosiy g'oyalar, tushunchalar va metodik yondashuvlarni aniqlash hamda ularni mantiqiy toifalarga ajratish imkonini berdi. Har bir manbada refleksiv fikrlash tushunchasining ta'rifi, uning tarkibiy elementlari (o'z-o'zini tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, tajribani qayta baholash), shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodlar alohida ajratib olindi. Keyingi bosqichda ushbu elementlar o'zaro solishtirildi va umumiy hamda farqli jihatlar aniqlashtirildi.

Tahlil jarayonida refleksiv fikrlashni rivojlantirish metodlari bir necha guruhlariga ajratildi. Jumladan, yozma refleksiya (reflektiv kundaliklar, yozma tahlil), og'zaki refleksiya (muhojama, reflektiv suhbatlar), kuzatuv va tahlilga asoslangan metodlar hamda raqamli va videoasoslangan refleksiya usullari alohida toifalar sifatida ko'rib chiqildi. Har bir metod bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy fikrlashini rivojlantirishdagi roli, pedagogik amaliyot sharoitida qo'llanish imkoniyati va metodik samaradorligi nuqtayi nazaridan baholandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida klassik va zamonaviy ilmiy manbalar uyg'unlashtirildi, turli mamlakatlarda olib borilgan





tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilindi hamda bir muallif yoki bitta ilmiy maktab yondashuvi bilan cheklanib qolishdan qochildi. Mazkur metodologik yondashuv refleksiv fikrlashni rivojlantirish muammosini keng pedagogik kontekstda ko'rib chiqish va asosli ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.


3. Natijalar va ularning tahlili

Mazkur tahliliy tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv fikrlashni rivojlantirish pedagogik ta'lim jarayonining muhim va ajralmas tarkibiy qismi ekanini ko'rsatadi. Tahlil qilingan ilmiy manbalarning aksariyatida refleksiv fikrlash o'qituvchining kasbiy shakllanishida markaziy rol o'ynashi ta'kidlanadi. Xususan, refleksiv fikrlash rivojlangan bo'lajak o'qituvchilar pedagogik vaziyatlarni chuqurroq tahlil qilishga, o'z faoliyatining sabab va oqibatlarini anglashga hamda metodik qarorlarni ongli ravishda qabul qilishga qodir bo'lishi aniqlangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, refleksiv fikrlash eng avvalo bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ongini rivojlantiradi. Refleksiya orqali talaba-o'qituvchilar o'z darslarini faqat bajarilgan faoliyat sifatida emas, balki tahlil qilinishi lozim bo'lgan pedagogik jarayon sifatida qabul qila boshlaydi. Bu holat ularning o'z kasbiy tajribasiga tanqidiy yondashuvini shakllantiradi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, refleksiv fikrlash tajribani mexanik takrorlashdan kasbiy bilimga aylantirish imkonini beradi. Natijada bo'lajak o'qituvchi o'z faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan ichki ehtiyojni his qiladi.

Tahlil natijalari refleksiv fikrlashni rivojlantirishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Eng ko'p uchraydigan va samarali metodlardan biri yozma refleksiya hisoblanadi. Reflektiv kundaliklar, darsdan keyingi yozma tahlillar va o'z-o'zini baholash varaqalari bo'lajak o'qituvchilarga o'z fikrlarini tizimli shaklda ifodalash imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlarda yozma refleksiya talabaning fikrlash jarayonini sekinlashtirib, uni chuqurlashtirishi qayd etilgan. Bu jarayon refleksiv fikrlashning yuzaki emas, balki mazmunli shakllanishiga xizmat qiladi.

Natijalardan yana biri og'zaki refleksiya va muhokama asosidagi metodlarning ahamiyati bilan bog'liq. Pedagogik amaliyot jarayonida ustoz-o'qituvchi yoki metodist bilan olib boriladigan reflektiv suhbatlar bo'lajak o'qituvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Bunday muhokamalar davomida talabalar o'z faoliyatiga tashqi nuqtayi nazardan qarash imkoniga ega bo'ladi. Natijada ular o'z xatolarini oqlashga emas, balki anglash va tahlil qilishga





intiladi. Ilmiy manbalarda bu holat refleksiv fikrlashning ijtimoiy jihati sifatida baholanadi.

Tahlil qilingan tadqiqotlar refleksiv fikrlashni rivojlantirishda kuzatuv va tahlilga asoslangan metodlar, xususan videoasoslangan refleksiya usullarining samaradorligini ham ko'rsatdi. Videoyozuvlar orqali o'z darslarini qayta ko'rgan bo'lajak o'qituvchilar o'z harakatlarini real dalillar asosida baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu metod subyektiv baholashni kamaytiradi va refleksiyani aniq pedagogik vaziyatlar bilan bog'laydi. Natijada refleksiv fikrlash yanada chuqur va asosli shakllanadi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, refleksiv fikrlashni rivojlantirish tasodifiy jarayon emas. Agar refleksiya maxsus metodik yo'naltirishsiz tashkil etilsa, u ko'pincha yuzaki xulosalar bilan cheklanib qoladi. Ilmiy adabiyotlarda refleksiv fikrlashning samaradorligi uni pedagogik ta'lim dasturiga tizimli ravishda integratsiya qilish bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi. Shu sababli refleksiv faoliyatni rejalashtirish, baholash va tahlil qilish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Yana bir muhim natija refleksiv fikrlashning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mustaqilligiga ta'siri bilan bog'liq. Refleksiya orqali talabalar tayyor metodik andozalarga ko'r-ko'rona amal qilishdan voz kechib, vaziyatga mos pedagogik yechimlarni izlashga o'rganadi. Bu holat ularning kasbiy ishonchini oshiradi va pedagogik faoliyatga ongli yondashuvni shakllantiradi.

Umuman olganda, natijalar va ularning tahlili refleksiv fikrlash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Refleksiv fikrlash pedagogik faoliyatni tahlil qilish, xatolarni anglash va kasbiy rivojlanishni ta'minlash uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, refleksiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni pedagogik ta'lim amaliyotiga keng joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan zarurat hisoblanadi.

Xulosa

Ushbu tahliliy maqolada bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv fikrlashni rivojlantirish masalasi ilmiy adabiyotlar asosida chuqur tahlil qilindi. Tahlil natijalari refleksiv fikrlash zamonaviy pedagogik ta'limning muhim tarkibiy qismi ekanini va o'qituvchi kasbiy shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Refleksiv fikrlash orqali bo'lajak o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini ongli ravishda baholash, tajribasini tahlil qilish va kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.






O'rganilgan ilmiy manbalar refleksiv fikrlash o'z-o'zidan shakllanmasligini, balki maxsus metodik yondashuvlar asosida rivojlantirilishini tasdiqlaydi. Yozma refleksiya, refleksiv kundaliklar, muhokama va refleksiv suhbatlar, shuningdek videoasoslangan tahlil metodlari bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv fikrlashini chuqurlashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, refleksiyani rejalashtirilgan va rahbarlik qilingan faoliyat sifatida tashkil etish uning pedagogik qiymatini sezilarli darajada oshiradi.

Tahlil natijalari pedagogik ta'lim amaliyotida refleksiv fikrlash ko'pincha yetarli darajada tizimli shakllantirilmayotganini ham ko'rsatadi. Refleksiya faqat darsdan keyingi qisqa hisobotlar bilan cheklangan hollarda u kasbiy rivojlanishga yetarli ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli refleksiv fikrlashni pedagogik amaliyot va o'qituvchi tayyorlash dasturlarining markaziy komponentiga aylantirish zarur hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv fikrlashni rivojlantirish ta'lim sifati, pedagogik qarorlar qabul qilishning ongli va asosli bo'lishi hamda o'qituvchining kasbiy mustaqilligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahliliy maqola refleksiv fikrlashni rivojlantirish bo'yicha metodik yondashuvlarni ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi va kelgusida empirik tadqiqotlar olib borish uchun nazariy poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewey, J. (1933). How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. Boston, MA: D.C. Heath and Company. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=1434306>
2. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books. <https://studenthublive.open.ac.uk/sites/studenthublive.open.ac.uk/files/reflective%20practitioner%20-%20schon.pdf>
3. Schön, D. A. (1987). Educating the Reflective Practitioner. San Francisco: Jossey-Bass.
4. <https://www.daneshnamehicsa.ir/userfiles/file/Manabeh/Educating%20the%20reflective%20practitioner.pdf>
5. Loughran, J. J. (2002). Effective reflective practice: In search of meaning in learning about teaching. Journal of Teacher Education, 53(1), 33–43.
6. <https://teachsource.wordpress.com/wp-content/uploads/2013/05/loughran-2002.pdf>
7. Farrell, T. S. C. (2015). Promoting teacher reflection in second language education: A framework for TESOL professionals. TESOL Quarterly, 49(3), 484–487.





8. file:///C:/Users/user/Downloads/Promoting_Teacher_Reflection_in_Seco
nd_L.pdf

